

Amir Temurning Hindistonga yurishi haqida.

Tarix 202-guruh talabasi Yusupov Ilyos
Ilmiy raxbar: t.f.n., dosent B.M.Mirkomilov

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temurning Hindiston va boshqa davlatlarga qilgan yurishlari, razvetka masalasi, Ibn Arabshohning bergan bebaho ma'lumotlari to'g'risidagi muallifning qisqacha fikr-mulohazalari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Ibn Arabshoh, Hindiston, qo'shin, sohibqiron, razvetka, masjid, josus, davlat.

Amir Temurning boyligi afsonaga aylangan Hindiston sari hamda, boshqa davlatlarga qilgan yurishlarida razvedka masalasiga alohida ahamiyat beradi. Amir Temurning maxfiy xizmati haqida eng xolis ma'lumotlarni sohibqironning zamondoshi Ibn Arabshoh yozib qoldirgan. U bergan ma'lumotlarda Amir Temur maxfiy xizmati shaxsiy tarkibi xususida bebaho ma'lumotlar mavjud.

Temur -deb yozadi Ibn Arabshoh, yerlarining barcha tomonlariga o'z ayg'oqchilarini tarqatib, qolgan mulklariga esa josuslar qo'ygan edi. Bu razvetkachilarning biri savdogar, biri polvon, biri dorboz, munajjim va o'z tabiatigacha ish qiladigan, gapchinos qalandarlaru darveshlar, dengizchi mallohlaru quruqlikdagi sayyohlar edi. Ular ilm talabida mag'rib-u mashriqni kezgan, payiga tushgan maqsad yo'lida makr-u xiyla makonida kamolga yetgan, o'zining nozik firibi va dahosi bilan, suv bilan olov, to'g'rilik bilan egrilik orasida unib o'sgan makr-u xiylada Soson va Abu Ziyoddan ham o'tib ketgan, o'z hikmati bahsida Ibn Sinoni ham mulzam qilgan, ikki muxolifni bir-biriga birlashtirib, ikki dushmani bir-biriga qo'shgan uddaburon kishilar edi. "Temur Tuzuklari" da Sohibqiron o'zining o'gitlaridan birida ichki razvetkaga doir misol keltiradi: "Podshoh majlis ahlidan ogoh bo'lsinkim, ular ko'pincha ayb axtarib uni tashqariga tashiydilar. Podshohning so'zidan, ishidan vazirlarga, amirlarga xabar berib turadilar. Masalan, shunga o'xshash bir voqea mening o'zim bilan roy bergandi, o'zimning xos majlisimdagi bir qancha suhbatdoshlarim vazirlar va amirlarimning josuslari ekan".¹ Amir Temur urushning aytgani-aytgan, degani-degan qattol bir zamonda yashadi, qilich-u nayzaga suyangan bu zamonning hech kimga bo'ysunmaydigan qonunlari bor edi. Ularga rioya qilmaslik yoki chetlab o'tishlik mumkin emas edi. Shuni ta'kidlash joizki, Sohibqiron xudo izmidan chiqmaydigan bandalardan edi, hech qachon birinchilardan bo'lib urush boshlamasdi. Uning yurishlari barchasi zaruratdan kelib chiqardi. Eng avvalo, u urushning oldini olish chorasini izlardi. Ayrim hollarda qaysidir mamlakatda zulm ortib izdan chiqib ketgan bolsa, u joyning ulug'lari Sohibqiron Amir Temurga ko'mak so'rab murojaat qilishardi. Masalan, Eron, Iroq va boshqa mamlakatlar. Amir Temur o'z "Tuzuklari" da davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengashga ajratgani, bir ulushini qilichga qoldirganini yozadi. U umr boyi bunga rioya qilgan. Muxolif mamlakatlarga takror-takror elchilar yuborar, shu

¹X.Sodiqov – "Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati" 7-8-bet

jumladan Hindistonga ham, quda-andachilikni yo'lga qo'yishga tirishar, qarindoshchilikni rivojlantirish yo'llarini izlardi. Buning yorqin misoli Xorazmning go'zal malikasi Xonzoda xonimning Turon saltanati valiahdi amrzoda Jahongir Mirzoga uzatilishi edi.²

Dastavval, farzandslarim amirlarimning ko'ngli, o'y-fikrlarini bilish uchun ularga maslahat soldim. Amirzoda Pirmuhammad Jahongir: "Agar Hindistonni olsak, uning oltinlari bilan butun yer yuzini egallaymiz." - dedi. Amirzoda Muhammad Sulton esa: "Hindistonni olamiz-u, biroq bunga to'siqlar bor: daryolar, o'rmonlar, to'qaylar, sipohiylar, odamga ov qiladigan quturgan fillar va boshqa yana birqancha to'siqlar" - dedi. Amirlarim esa "Boringki Hindistonni oldik ham deylik. Biroq u yerda turg'un bo'lib qolsak, naslimiz yo'qoladi, avlodlarimiz o'z aslidan ajrab, tillari hindcha bo'lib ketadi" - deyishdi. Men bo'lsam, Hindistonga yurish uchun himmat kamarini belga bog'laganimdan o'z azm-u jazmimdan voz kechishni istamadim va shunday javob qildim: "Tangri taolaga o'tinch bilan murojaat qilaylik, toki tangri taolo neni buyursa shunga amal qilamiz. Bu haqda Qur'ondan ko'raylik." Hammalari mening taklifimni maqullashdi.³

Amir Temurning hind sari yurishidagi va umuman uning barcha qo'shinlari haqida L.Keren "Amir Temur qo'shinining har bir favjining alohida rangli o'z tug'i bo'lib, bu favj askarlari-yu otlari ham aynan shu rangdagi sovut, zirx, qalqon, yoping'ich, o'qdon va nayzalar bilan taminlangan edi. Shu alfozda oq, yashil, binafsharang yoxud qizil rangli favjlar mavjud edi" - deb yozadi.

Olim X.Dadaboyev fikrlari ham bunga hamohangdir: "Sohibqiron armiyasida muntazam qo'shinga xos bo'lgan ko'pgina belgilar mavjud edi. Qo'shin son jihatdan aniq va puhta tashkil etilgan edi. Qo'shin o'z zamonasining ilg'or qurol-yarog'i, texnikasi bilan qurollangan, har bir qism bo'linma aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan taminlangan, bo'linmalar, qismlar bir-biridan kiyimi, ko'targan bayrog'i, hatto minga otining tusi bilan ham farqlangan."⁴

Xilda Xukxemning yozishicha, Panjob vodiysi Temur uchun Chig'atoy xonligining qonuniy hududi hisoblangan. Bundan tashqari, Sulton Muhammad Tug'luq vafotidan keyin Dehli sultonligi zaiflashib bordi va atrofdagi kichik knyazliklar mustaqillik e'lon qildi. Uning vorisi Feruz Shoh zamonida ham bu narsa davom etdi. Sultonlik kichrayib, Dehli bilan cheklanib qoldi. Amir Temur Hindiqushgacha bo'lgan yerlarni o'ziga bo'ysundirgan paytda, qochib ketgan mahalliy amirlar Dehlidan boshpana topgan edi. Tarixchilarning fikricha, Temur Hindistonni doimiy boshqarish niyatida emas, balki boylik, o'lja ilinjida egallashni istardi. 1392-yilda bir paytlar Sulton Mahmud G'aznaviy mulki hisoblangan yerlarni boshqarishni nevarasi Pirmuhammad ibn Jahongirga topshirgan Temur, 1397-yilda unga Hindistonga yurib, dushman hind knyazliklariga hujum qilishni buyurdi. Shu tariqa Mo'ltan Pirmuhammad tomonidan egallandi. Shu yil qishni Movarounnahr shimolida o'tkazgan Temur 1398-yilning ilk oylarida Samarqandga qaytdi va qo'shinni to'pladi. Qurultoy chaqirilib, unda Hindiston yurishi haqida e'lon qilindi. Qurultoyda Temurxon quyidagicha nutq qildi:

²Muhammad Ali – "Amir Temur solnomasi" 8-9-bet

³"Temur tuzuklari". 1991-yil. "Sharq yulduzi" forschadan Alixon Sog'uniy va Xabibullo Karomatov tarjimai 46- bet

⁴X.Dadaboyev – "Amir Temurning harbiy mahorati" 16-17-bet

“Feruzshohning nabirasi Dehli taxtiga o‘tirdi. Ammo bu yosh sultonning hukmi o‘z qo‘l ostidagilarga o‘tmaydi. Hatto ular unga qarshi dushmanlik qilmoqda. Shundaylardan biri Sarangxon Mo‘ltonni Sayyid Xizr xondan tortib oldi, ammo o‘zi hozir Pirmuhammadning hujumiga duchor bo‘ldi. Dehlida Sarangning birodari Malluxon raqiblarini mag‘lub etib, shaharni egalladi va sulton nomidan hukmronlik qilmoqda. Bu tartibsizliklar bizning g‘alabaga chanqoq qo‘shinimizni Hindga olib borishga majbur qilmoqda. Bundan tashqari, haq dinga Hindning ko‘p joyida amal qilinayotgan bo‘lsa-da, saltanatning katta qismida mushriklar istiqomat qilmoqda. Dehli sultonlari haq dinni himoya qilishdan o‘z qiziqlik qilmoqda. Musulmon hukmdorlar faqat jizya olish bilan cheklanmoqdalar...”

Shunday qilib, Temurning 90 ming kishilik qo‘shini mart oyida Hindistonga qarab yurishni boshladi. Qo‘shinning eng yaxshi qismi chig‘atoylardan tashkil topgan edi. Bo‘linmalar qo‘mondonlari esa uning yoshlikdagi do‘stlari edi. Samarqandga Amir Temur Mironshohning o‘g‘li Umarshayxni qoldirib ketdi. Qo‘shin Termiz yaqinida Amudaryoni kesib o‘tdi va Andarobda to‘xtadi. Qo‘shinning asosiy qismi va yuklar shu yerda qoldirildi va uning o‘zi maxsus guruh bilan Kofiristonga qarab yurdi. Siyohpo‘shlar deb ataladigan xalq bu paytda musulmon emas edi va Temur ularni mag‘lub etib, asosiy qo‘shin uchun Hindistonga boradigan yo‘lni ochib qo‘ydi. O‘zi ham qo‘shinning asosiy qismiga kelib qo‘shildi. Shunday qilib, 1399-yilning mart oyiga qadar Hindistonning butun shimoliy qismi Temur tomonidan egallandi. Mart oyida u barcha amirlari va qo‘mondonlarini yig‘ib, ularni o‘zlarining viloyatlariga jo‘natib yubordi. Hind mulkini esa Hizr Xon Sayyidga topshirib, o‘zi Samarqandga qarab yo‘l oldi. Hizr Xon esa o‘zini Amir Temurni vassal deb e‘tirof etib, uning nomini xutbaga qo‘shib o‘qittirdi va uning nomidan tangalar zarb ettirdi. Qochib ketgan Malluxon va Sulton Mahmudlar qaytib kelib, hokimiyat uchun kurashga qo‘shildi. Ammo Hizr Xon sayyid ularni mag‘lub etib, Dehlida sayyidlar sulolasiga asos soldi. Samarqandga qaytgan Temur g‘alabasi sharafiga shaharda ulkan masjid qurdirishga buyruq berdi. Bu masjid xalq orasida Bibixonim masjidi deb nomlanadi. Masjid 1399–1405-yillarda qurildi. Hind safaridan betob bo‘lib qaytgan Temur sog‘ligini tiklagach, Hindistonga chopar yubordi va fillar jo‘natishni so‘radi. Ushbu fillar unga Suriya, Kichik Osiyo yerlaridagi zafarli yurishlarda katta yordam berdi.⁵

Tarixdagi ulug‘ zotlar Bahri Ummonda kezib yurgan bahaybat kemalarga o‘xshaydi. Bir qaraganingizda bu kema ko‘zingizga yaxlit taslangani bilan uning ichida va kayutalarida qanchadan qancha tilsimli hodisalar ro‘y beradi. Va bu kemaning izidan mavjlangan iz qoladi. Bu iz hatto fazodan boqqanda ham ko‘zga yaqqol tashlanishi mumkin. Biz buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur hazratlarini dunyoda neki eng kuchli, eng jozibali, eng mahobatli bo‘lsa, o‘shanga qiyoslashimiz mumkin. Bu ulug‘ zotning hayoti va faoliyati jo‘nroq aytganda, tarjimai holi bizga malum bolsada, biz eslatgan cho‘qqi yoxud ulkan kema yanglig‘, bu muhtasham siymoning nomi bilan bog‘liq biz bilmagan, eshitmagan voqealar, rivoyatlar, hodisalar yer yuzi bo‘ylab kezib yuripti.

⁵www.ziyoNET.uz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Sodiqov – “Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati” 7-8-bet
2. Muhammad Ali – “Amir Temur solnomasi” 8-9-bet
3. “Temur tuzuklari”. 1991-yil. “Sharq yulduzi” forschadan Alixon Sog’uniy va Xabibullo Karomatov tarjimasi 46- bet
4. X.Dadaboyev – “Amir Temurning harbiy mahorati” 16-17-bet
5. www.ziyoNET.uz